

## MAKTAB DARSLIKLARIDA (SI) BIRLIKLAR SISTEMASI O'LCHOV BIRLIKLARINING YOZILISHIDAGI O'ZGARISHLAR

**Sharofat Faxriddinovna Ostonova**

Samarqand davlat universiteti, Pedagogika ta'limi fakulteti doktoranti

### ANNOTATSIYA

Maqolamizning asosiy maqsadi maktab yoshidagi o'quvchilarga, matematika darsliklaridagi o'lchov birliklarining xalqaro (SI) birliklar sistemasida belgilanishini tushunish va to'g'ri qo'llay olishga o'rgatish.

**Kalit so'z:** matematika darsligi, o'lchov birlilar, (SI) xalqaro birliklar sistemasi, jadval.

## CHANGES IN THE WRITING OF UNITS OF THE SYSTEM OF UNITS (SI) IN SCHOOL TEXTBOOKS

### ABSTRACT

The main goal of our article is to teach school-age students to understand and correctly use the units of measurement in mathematics textbooks in the international (SI) system of units.

**Keywords:** mathematics textbook, measurement units, (SI) international system of units, table.

Mamlakatimiz tobora rivojlanib, har sohada jahondagi eng rivojlangan mamlakatlar qatoriga yaqinlashib bormoqda. Bu yuksalishlar iqtisodiy va ilm-fan yo'nalishida ham jadallik bilan olib borilmoqda.

Ushbu maqolada maktab darsliklarida o'lchov birligini yozishdagi o'zgarishlarga e'tibor qaratganmiz. Bu, xususan, xalqaro o'lchovlar tizimi (SI) kontekstida, matematika darsliklarida bu o'lchov birligini to'g'ri tushunish va qo'llashda o'quvchilarga yordam berishni maqsad qiladi. Maqolada O'zbekiston ta'lim sohasida, jumladan, ta'lim materiallarida SI birligini qabul qilish orqali global standartlarga moslashuvi ta'kidlangan.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida o'lcham birliklarini qo'llash to'g'risida"gi 21-son qarori fikrimizni yorqin dadlilidir.

O'zbekiston Respublikasida qo'llashga ruxsat berilgan, Xalqaro o'lchamlar tizimi (SI) ning o'lcham birliklari nomi va belgilanishi 1-ilovaga muvofiq;

O'lcham birliklarini yozish va qo'llash qoidalari 3-ilovaga muvofiq belgilangan.

Qarorga muvofiq o'lcham birliklarining nomi, belgisi, ularni yozish va qo'llash qoidalari:

- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda, ilmiy-texnik va boshqa nashrlarda, shu jumladan, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilishda, o'quv, o'quv-metodik va turli ma'lumotlar beradigan yordamchi adabiyotlarda ushbu qaror bilan tasdiqlangan o'lcham birliklari, ularning nomi va belgilanishi qo'llaniladi.

Avvalo biz yuqorida aytib o'tgan (SI) xalqaro o'lchamlar tizimiga ta'rif berib o'tsak. Xalqaro o'lchamlar tizimi (SI) asoslangan, O'lchov va Tarozilar Bosh konferensiyasi tomonidan qabul qilingan va tavsiya etilgan, nomlar va belgilar, shuningdek, old qo'shimchalar to'plami va ularning nomlari hamda belgilarini, ularni qo'llash qoidalarini o'z ichiga olgan tizimdir.

O'zbekiston Respublikasida qo'llashga rasmiy ravishda ruxsat etilgan o'lcham birliklarini yozish faqat belgilangan tartibda tasdiqlangan nomlari yoki belgilariga muvofiq amalga oshiriladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda umumiy o'rta ta'lim maktablarining III, VIII, IX sinflariga matematika va fizika fanidan 2019-yil nashr etilgan yangi o'lchov birliklari yozilishi va belgilanishidagi o'zgarishlar bilan belgilangan. Xususan, 3-sinf matematika darsligida foydalanilgan o'lchov birliklarining nomi va belgilari jadvali berilgan.

**1-jadval. O'lchov birliklarining nomi va belgilari**

<i>T/r</i>	<i>Kattalik</i>	<i>O'lchov birligi</i>	<i>Qisqa ifodasi</i>
1	Uzunlik (L)	metr	m
2	Vaqt (T)	sekund	s
3	Massa (M)	kilogramm	kg
4	Massa	sentner	1 q = 100 kg
5	Massa	tonna	1 t = 1000 kg
6	Vaqt	minut	1 min = 60 s
7	Vaqt	soat	1 h = 60 min
8	Vaqt	sutka	1 d = 24 h
9	Vaqt	asr	1 asr = 100 yil
10	Yuza (maydon) (S)	metr kvadrat	m <sup>2</sup>
11	Yassi burchak	gradus	...°

1-jadvalda berilgan o'lchov birliklaridan tashqari (tizimdan tashqari o'lchov birliklari)

Gektar –(g) hektore - (ha)

Sutka – day- (d)

Ar –(ar) are - (a)

Santimetr – (sm) centemetre -(cm)

Sentner – (q) quintal

km/soat – (km/h)

Garadus (...°) degree

Vaqt-(h) hour

tarzida qo'llaniladi.

O'lchov birliklarining bunday belgilanishini quyi sinflardan o'rgatilishi farzandlarimizni etuk va barkamol bo'lib ulg'ayishiga katta hissa bo'lsa ajabmas.

Xulosa qilib aytganda SI birligini kichik sinflardan o'qitishning muhim deb hisoblaymiz. Bu yondashuv, xalqaro o'lchov standartlarini yoshligidan tushunishida o'quvchilarning keng qamrovli rivojlanishiga hissa qo'shishi mumkin. Bu asosiy bilimlar kelajakdagi yutuqlariga va ulug' allomalar hamda olimlarning merosini davom ettirish qobiliyatlariga sezilarli hissa qo'sha oladi. Zero farzandlarimiz kichik yosh davrlaridan xalqaro o'lchov standartlarini tushinib, kelajakda ulkan ixtirolar bilan buyuk bobolarimizga munosib vorislar bo'ladi deb ishonamiz.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida o'lcham birliklarini qo'llash to'g'risida" gi 21-son qarori
2. Matematika fanidan 3-sinflar uchun darslik.Tuzuvchilar: S. Burxonov, O'. Xudoyorov, Q. Norqulov va boshqalar – T.:, "SHARQ" 2019. – 208 b.
3. Algebra fanidan 8-sinflar uchun darslik.Tuzuvchilar: Sh.A.Aliyev, A.R.Xolmuxamedov, M.A.Mirzaxmedov. – 4nashr. – T.:, "O'qituvchi" 2019. – 240 b.
4. Algebra fanidan 9-sinflar uchun darslik.Tuzuvchilar: Sh.A.Aliyev, A.R.Xolmuxamedov, M.A.Mirzaxmedov. – 4nashr. – T.:, "O'qituvchi" NMIU 2019. – 240 b.
5. Geometriya fanidan 9-sinflar uchun darslik.Tuzuvchilar: B.Q.Xaydarov, E.S.Sariqov, A.Sh.Qo'chqorov. – T.:, 2019. – 160 b.
6. [www.theteacherscorner.net](http://www.theteacherscorner.net)
7. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

